MAKTAB DIREKTORLARINING MOLIYAVIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Ibragimova Go`zal Abdullaazizovna
Oriental universiteti, mustaqil tadqiqotchi
E-mail: sarvinoz1707@gmail.com

Annotatsiya. Tezisda maktab rahbarlarining moliyaviy kompetentligini rivojlantirishning xorijiy tajribasi tahlil qilingan va undan O‘zbekiston sharoitida foydalanish imkoniyatlari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: maktab direktori, moliyaviy kompetentlik, xorijiy tajriba, kasbiy standart, murabbiylik, malaka oshirish.

Ta’lim boshqaruvini markazsizlashtirish jarayonida maktablarga berilayotgan moliyaviy mustaqillik rahbarlar zimmasiga byudjetni rejalashtirish, resurslarni taqsimlash va moliyaviy hisobdorlik vazifalarini yuklamoqda. OECD tadqiqotida maktab rahbari vazifalari tarkibida moliyaviy va inson resurslarini strategik boshqarish asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida ajratilgan. Shu bilan birga, maktabga berilgan mustaqillik rahbarlarni maxsus tayyorlash bilan birga olib borilmasa, kutilgan samara bermasligi ta’kidlanadi [3]. Shu bois rahbarlarning moliyaviy kompetentligini rivojlantirishning xorijiy tajribasini o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

OECD tavsiyalariga ko‘ra, maktab rahbarlarini rivojlantirish uch bosqichni qamrab olishi lozim: lavozimga qadar tayyorlash, lavozimga kirishishda qo‘llab-quvvatlash va uzluksiz kasbiy rivojlanish [3]. Moliyaviy tayyorgarlik nuqtai nazaridan bu yondashuvning ahamiyati shundaki, bo‘lajak rahbar moliyaviy boshqaruv asoslarini lavozimga kirishdan oldin egallaydi, birinchi byudjet tsiklida esa murabbiylik orqali qo‘llab-quvvatlanadi.

Mamlakatlar tajribasi tahlili bir necha samarali yondashuvni ajratish imkonini beradi. Angliyada maktablar keng moliyaviy mustaqillikka ega bo‘lib, moliyaviy boshqaruv sifati maxsus standart (Schools Financial Value Standard) asosida o‘z-o‘zini baholash orqali ta’minlanadi, ko‘plab maktablarda esa direktorga yordam beruvchi biznes-menejer lavozimi joriy etilgan. AQShda ta’lim rahbarlari kasbiy standartlarida (Professional Standards for Educational Leaders, 2015) maktab faoliyati va resurslarini boshqarish alohida standart sifatida belgilangan [2], rahbarlarni tayyorlash dasturlariga esa ta’lim moliyasi kursi kiritilgan. Finlandiyada direktor lavozimiga tayinlanish uchun ta’lim boshqaruvi bo‘yicha maxsus sertifikat talab etiladi. Singapurda rahbarlikka nomzodlar oldindan saralanib, amaliyotga yo‘naltirilgan, real maktab loyihalariga asoslangan dastur orqali tayyorlanadi.

Qiyosiy tahlil quyidagi umumiy qonuniyatlarni ko‘rsatadi: maktab moliyaviy mustaqilligi qanchalik yuqori bo‘lsa, rahbarlarni moliyaviy tayyorlash talablari shunchalik qat’iy; moliyaviy kompetentlik kasbiy standart yoki malaka talablariga rasmiy kiritilgan; o‘qitish amaliyotga va real vazifalarga yo‘naltirilgan; rahbarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari (biznes-menejer, murabbiylik, o‘z-o‘zini baholash vositalari) mavjud.

O‘zbekistonda ta’lim muassasalari boshqaruvini takomillashtirish va rahbar kadrlar salohiyatini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1]. Maktab rahbarlarining malaka oshirishi tizimli va majburiy xarakterga ega, biroq moliyaviy masalalar ko‘pincha umumiy boshqaruv kursining kichik, asosan nazariy qismi sifatida o‘qitiladi. Shu bilan birga, maktab xarajatlar smetalarini ochiq e’lon qilish va Kuzatuv kengashlari faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi direktorlarning moliyaviy tayyorgarligiga bo‘lgan talabni oshirmoqda [4].

Xorijiy tajriba asosida O‘zbekiston sharoitida quyidagi yondashuvlarni qo‘llash maqsadga muvofiq:

- moliyaviy kompetentlik talablarini maktab direktori kasbiy standarti yoki malaka talablariga alohida bo‘lim sifatida kiritish;
- direktor lavozimiga tayinlash va kadrlar zaxirasini shakllantirishda moliyaviy-boshqaruv tayyorgarligini hisobga olish;
- yangi tayinlangan direktorlar uchun birinchi yil davomida moliyaviy murabbiylikni joriy etish;
- malaka oshirishni keys-stadi, simulyatsiya va maktab uchun real moliyaviy loyihalarga asoslash;
- direktorlar uchun moliyaviy o‘z-o‘zini baholash vositalarini ishlab chiqish.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy tajribani mexanik ko‘chirish emas, balki uni milliy moliyalashtirish tizimi va malaka oshirish an’analariga moslashtirish maktab direktorlarining moliyaviy kompetentligini oshirishning samarali yo‘li hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni. 2019-yil 29-aprel, PF-5712-son.

2. National Policy Board for Educational Administration. Professional Standards for Educational Leaders 2015. — Reston, VA, 2015.

3. Pont B., Nusche D., Moorman H. Improving School Leadership. Volume 1: Policy and Practice. — Paris: OECD Publishing, 2008.

4. Maktablar ta’miriga ajratiladigan mablag‘lar yetarli(mi?) // Kun.uz, 2019. — https://kun.uz/news/2019/05/29/maktablar-tamiriga-ajratiladigan-mablaglar-yetarlimi